



## AHOLI ORASIDA ALLERGIK TUMOV KASALLIGINI SKRININGI SIFATINI OSHIRISH

**Asrorov A.A.**

Buxoro davlat tibbiyot instituti

Buxoro, O'zbekiston

**Kirish.** Ko'p sonli ilmiy-tadqiqot ishlarining olib borilishi shuni ko'rsatadiki, uchrash hollarining yuqoriligi, klinik og'ir kechishi, asoratlari va noxush oqibatlari bilan bolalar yoshida allergik tumov kasalligi muammoligicha qolmoqda.

**Tadqiqot maqsadi.** Buxoro shahar aholisi orasida allergik tumov kasalligini skriningi sifatini oshirish.

**Tadqiqot material va usullari.** Tekshirish ishlari Buxoro shahar 4-son poliklinikasida olib borildi. Poliklinikaning 3-daha aholi soni 2893 ta, shundan kattalar 1732, bolalar 964 ta. Fertil yoshdagi ayollar 782 ta, allergik tumov kasalligi bilan nazoratda bo'lgan 46 ta bemor, burun to'sig'ining qiyshayishi 12 ta, burun yondosh bo'shliqlarining surunkali yallig'lanishi 28 ta, anamnezida burundagi adenoidlar vegetatsiyasi 32 ta bemorda aniqlandi. Bemorlarga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini baholashda quyidagilarga etibor berildi: Anamnez, ob'ektiv va sub'ektiv ko'ruv, burun, xalqum, quloqni ob'ektiv instrumental qo'ruvi (rinoskopiya, otoskopiya, faringoskopiya), umumiy qon va siydik tahlili, ko'rsatmaga ko'ra qo'shimcha tekshirish usullaridan: burun yondosh bo'shliqlarini rentgenologik tekshirish va tor mutaxassislar ko'rigi va maslahati, zarur davo choralari o'tkazilganligi o'rganildi.

**Tadqiqot natijalari.** 4-son poliklinikasidagi 3-daha aholisida 46 ta bemor allergik tumov tashxisi bilan dispanser nazoratida turadi. Bu 1.6% ni tashkil qiladi. Bu ma'lumotdan ko'rinib turibdiki, aholi orasida allergik tumov kasalligini aniqlanishi juda past darajada bo'lib, skrining yaxshi yo'lga qo'yilmagan. Aholining ko'pchiligi (53.4%) allergik tumov kasalligi haqida biladi, ammo kasallikning asoratlari to'g'risida, vrach nazoratida turish zarurligi to'g'risida, vrach nazoratida turish zarurligi to'g'risida va boshqa ma'lumotlar to'g'risida yetarli ma'lumotga ega emas. Poliklinika sharoitida kattalarda allergik tumov kasalligining diagnostikasi, davosi va profilaktikasiga oid standartlar ishlab chiqildi.

Tekshirishlar natijasi shuni ko'rsatdiki, kattalarda allergik tumov kasalligining diagnostikasi, davosi va profilaktikasiga oid standartlar yoki ma'lumot bo'lishi kerakligi ish boshida 50% ni, ish oxirida esa 90%, burundan nafas olishning qiyinlashishi bo'lgan bemorlar allergik tumov kasalligining asoratlarini baholash uchun eng zaruriy tekshiruvlardan o'tkazilishi ish boshida ham ish oxirida ham bir xil o'tkazilgan, bemorlar allergik tumov kasalligi belgilari va profilaktikasi to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishi ish boshida 27.8% ni, ish oxirida esa 65.3% ni tashkil qildi (farqi 37.5%ga sifati yaxshilandi).

**Xulosa.** Poliklinika hududida aholi orasida 1.6% allergik tumov kasalligini tarqalgan ekan. Allergik tumov kasalliginni asoratlarini baholashda burun, xalqum, quloqni ob'ektiv instrumental qo'ruvi (rinoskopiya, otoskopiya, faringoskopiya), ko'rsatmaga ko'ra qo'shimcha tekshirish usullaridan: burun yondosh bo'shliqlarini rentgenologik tekshirish va tor mutaxassislar ko'rigi va maslahati, shuningdek zarur davo choralari nazoratdagi hamma bemorlarda o'tkazilmagan. Uzluksiz aholi bilan ishlash ularning tibbiyot xodimlariga ishonchini oshiridi, allergik tumov kasalligi, uning oqibatlari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishi o'z sog'ligiga o'zi javobgarlik hissini oshiradi. Bu esa poliklinikada ko'rsatayotgan tibbiy xizmat sifatini yaxshilanishiga olib keladi.